



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 77-84 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YEOIINING IQTISODIY INTEGRATSIYASI: RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLAR



Zakirova Sayora Alimovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Xalqaro iqtisodiyot " kafedrası dotsenti

Baxtiyarov Muzaffar Ne'matjon o'gli

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqining (YeOII) iqtisodiy integratsiyasi jarayoni, uning rivojlanish istiqbollari va mavjud tahdidlari tahlil qilinadi. Unda YeOII doirasida shakllangan iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari, ittifoq a'zolari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar xususan, savdo hajmining oshishi, umumiy bozorlar va raqamli infratuzilmalarning rivoji kabi omillar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy tengsizlik, geosiyosiy bosimlar va a'zolar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi kabi tahdidlar ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, YeOII integratsiyasi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim omil bo'lishi mumkinligi aniqlangan, ammo bu jarayon muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muvozanatli siyosiy-iqtisodiy yondashuv zarur ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: YeOII, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy integratsiya, rivojlanish istiqbollari, tahdidlar, mintaqaviy hamkorlik, savdo hajmi, iqtisodiy siyosat, raqamli infratuzilma, iqtisodiy tengsizlik, geosiyosiy xavf.

Annotation: The article analyzes the process of economic integration of the Eurasian Economic Union (EAEU), its development prospects and existing threats. It examines the mechanisms of economic cooperation formed within the EAEU, the opportunities created for the members of the union, in particular, the growth of trade volumes, the development of common markets and digital infrastructures. At the same time, it analyzes threats such as economic inequality, geopolitical pressures and conflicts of interests between members. According to the results of the study, it was found that EAEU integration can be an important factor for economic development, but it is emphasized that a balanced political and economic approach is necessary for this process to be successful.

Keywords: EAEU, regional integration, economic integration, development prospects, threats, regional cooperation, trade volume, economic policy, digital infrastructure, economic inequality, geopolitical risks.

Аннотация. В статье анализируется процесс экономической интеграции Евразийского экономического союза (ЕАЭС), перспективы его развития и существующие угрозы. Рассматриваются механизмы экономического сотрудничества, сформированные в рамках ЕАЭС, возможности, создаваемые для участников союза, в частности, рост объемов торговли, развитие общих рынков и цифровых инфраструктур. В то же время

анализируются такие угрозы, как экономическое неравенство, геополитическое давление и конфликты интересов между участниками. По результатам исследования установлено, что интеграция ЕАЭС может стать важным фактором экономического развития, однако подчеркивается, что для успешности этого процесса необходим сбалансированный политико-экономический подход.

Ключевые слова: ЕАЭС, региональная интеграция, экономическая интеграция, перспективы развития, угрозы, региональное сотрудничество, объем торговли, экономическая политика, цифровая инфраструктура, экономическое неравенство, геополитические риски.

Kirish

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya zamonaviy dunyo iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi mamlakatlar o'rtasida savdo, investitsiyalar va boshqa iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi ushbu jarayonda muhim integratsion platforma sifatida shakllanib, a'zo davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan ko'plab mexanizmlarni taklif etadi. YeOII doirasidagi integratsiya jarayonlari savdo sohasida bojxona to'siqlarining kamayishi, mehnat migratsiyasi va investitsiya muhitining yaxshilanishi kabi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy integratsiya yangi tahdidlar va xavflarni ham o'z ichiga oladi, xususan, raqobat kuchayishi, iqtisodiy siyosatdagi uyg'unlashuvdagi qiyinchiliklar va tashqi bozorlarning ta'siri kabi omillar mavjud. Ushbu maqolada YeOIIning iqtisodiy integratsiyadagi imkoniyatlari va tahdidlariga asosli yondashiladi, integratsiya jarayonining samarali amalga oshirilishi uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

World Bank Group (2025) hisobotida Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining (YeOII) iqtisodiy integratsiya modeli va uni raqamli iqtisodiyotga o'tkazish jarayonlari keng tahlil qilingan [1]. Hisobotda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish uchun yagona raqamli bozorni shakllantirish, texnik standartlar, platformalar va kiberxavfsizlik bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, ushbu transformatsiya institutsional va infratuzilmaviy darajada uyg'unlikni talab etishi ta'kidlangan.

Avilova, Shaykhutdinova va Kuramshina (2019) o'z tadqiqotlarida YeOII doirasida yuqori texnologiyali tarmoqlarda integratsiyani chuqurlashtirish uchun "raqamli klasterlar" konsepsiyasini ilgari surganlar [2]. Ularning fikricha, bunday klasterlar ilmiy-texnik salohiyatni birlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport hajmini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda, shuningdek, texnologik tafovutlar va raqamli siyosatning yagonalashmaganligi integratsiya jarayonining dolzarb muammolari sifatida tilga olingan. Mualliflar YeOII mamlakatlari o'rtasida raqamli iqtisodiyot asosida tizimli hamkorlikni kuchaytirish zarurligini asoslab berganlar.

K. Meshcheryakov va hammualliflar (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasining tarixiy shakllanishi va muammolari tahlil qilingan [3]. Mualliflar YeOII loyihasining rivojlanishida kuzatilgan siyosiy muvofiqlik yetishmasligi, iqtisodiy nomutanosiblik va boshqaruvdagi byurokratik to'siqlar kabi omillarni asosiy to'siq sifatida ko'rsatganlar. Tadqiqot shuningdek, ittifoq a'zolari

o'rtasida strategik manfaatlar farqlari mavjudligi sababli integratsiya sekin kechayotganini ko'rsatadi. Bu omillar YeOII rivojlanishida tizimli yondashuv zarurligini asoslab beradi.

Ismailova va boshqalar (2021) EAEU doirasida moliyaviy bozorlarni birlashtirish borasidagi real muammolarni tahlil qiladi [4]. Tadqiqotda, a'zolar o'rtasida normativ farqlar, sarmoya muhitida suverenitet va moliyaviy infrastrukturadagi nomuvofiqliklar asosiy to'siqlar sifatida ko'tarib chiqilgan. Biroq uchinchi mamlakatlar bilan moliyaviy integratsiya (masalan, FDI va birja imkoniyatlari) uchun ijobiy salohiyat mavjudligi qayd etilgan. Ushbu maqola YeOII moliyaviy-kredit institutsiyalari rivoji uchun amaliy takliflar beradi.


A. Yeliseyeu (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda YeOII doirasidagi demokratik legitimlikning zaifligi, siyosiy ustuvorliklarning biryoqlamaligi va institutlararo nomuvofiqlik asosiy integratsion tahdidlar qatorida ko'rsatilgan [5]. Biroq muallif ittifoq doirasida mehnat bozori va texnik tartibga solish sohasida muhim yutuqlarga erishilganini ham alohida ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining iqtisodiy integratsiyadagi imkoniyatlari va tahdidlarini tahlil qilish uchun nazariy va taqqosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy integratsiya sohasidagi mavjud ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va mintaqaviy tajribalar sintez qilindi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy xulosalar va konseptual tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodlar integratsiya jarayonining murakkabligini chuqurroq o'rganish hamda YeOIIning iqtisodiy imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlashda samarali bo'ldi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Hozirgi kunda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) a'zo davlatlar o'rtasida savdo to'siqlarini kamaytirish va umumiy ichki bozorni shakllantirish orqali iqtisodiy integratsiyaning muhim imkoniyatlarini yaratmoqda. 2015-2021 yillar oralig'ida YeOII doirasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi taxminan 60.27% foizga oshdi, bu esa savdo erkinligini kengaytirish va bojxona tariflarini pasaytirish natijasidir.



1-rasm. YeOII mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmining yillik o'sish sur'ati keltirilgan¹

¹ https://eec.eaeunion.org/comission/departement/dep_stat/tradestat/tables/intra/ - Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi rasmiy statistik portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

1-rasmda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmining 2015–2023 yillar davomida qanday o'zgarishlar kuzatilgani aks ettirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda savdo hajmi qariyb 46 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 87 mlrd dollardan oshgan. Bu o'z navbatida, sakkiz yil davomida o'zaro savdoning deyarli ikki baravarga oshganini ko'rsatadi. 2015–2017 yillar oralig'ida savdo hajmida mo'tadil o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2019–2023 yillarda bu o'sish jadal tus oldi. 2021-yilda savdo hajmi 70 mlrd dollar atrofida bo'lib, 2023-yilga kelib 87 mlrd dollarga yetgani, YeOII ichki bozorlarining faol integratsiyalashuvi, bojxona to'siqlarining kamaytirilishi va logistika infratuzilmasining yaxshilanishi natijasi sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, savdo hajmining izchil o'sib borayotgani YeOII doirasida ishlab chiqarish zanjirlari va mahsulotlar oqimini chuqurlashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich erishilayotgan natijalarni aks ettiradi.

Xususan, bojxona to'siqlari kamayishi ichki bozordagi raqobatbardoshlikni oshirib, a'zo davlatlarning eksport salohiyatini kengaytiradi. Masalan, Rossiya, Qozog'iston va Belarus o'rtasida savdo aloqalari sezilarli darajada kuchaydi, bu esa iqtisodiy o'sishga xizmat qildi. Qolaversa, YeOII doirasidagi integratsiya investitsiya muhiti uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. 2020 yildan 2023 yilgacha YeOII davlatlariga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 48.7% ga oshgan. Bu esa infratuzilma, ishlab chiqarish, texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Investitsiyalarning oshishi mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va sanoat ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sish uchun poydevor bo'ladi.

1-jadval

2017–2024 yillarda YeOIIga a'zo davlatlar sanoat ishlab chiqarish hajmi (mln. AQSh dollari)²

Yuqoridagi 1-jadvaldan 2017–2024 yillar davomida Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi

Yil	Rossiya	Belarus	Qozog'iston	Qirg'iziston	Armaniston
2017	1 012 014.5	48 779.0	69 908.7	3 444.5	3 800.9
2018	1 113 221.8	54 093.6	78 959.4	3 738.4	4 011.4
2019	1 126 060.8	55 393.9	76 761.2	4 069.0	4 353.3
2020	1 005 702.3	48 120.2	65 452.2	4 202.8	4 296.6
2021	1 288 367.1	61 366.2	88 271.3	4 377.8	4 802.5
2022	1 521 781.1	64 537.1	105 926.6	5 180.9	6 312.6
2023	1 325 823.4	62 583.6	102 982.2	5 637.9	7 353.0
2024	1 345 601.0	62 430.8	106 775.9	6 715.7	7 634.7

(YeOII)ga a'zo davlatlar sanoat ishlab chiqarish hajmida izchil o'sish kuzatildi. Eng yirik

² https://eec.eaeunion.org/comission/departments/dep_stat/union_stat/current_stat/industry/series/ - Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi rasmiy statistik portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ko'rsatkichlar Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi – ushbu mamlakatda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 1,01 trln. AQSh dollaridan 2024-yilda 1,35 trln. dollarga oshib, umumiy o'sish 33 foizdan oshgan.

Qozog'iston iqtisodiyoti ham barqaror sanoat o'sishini namoyon etib, 2017-yildagi 69,9 mlrd. dollardan 2024-yilda 106,8 mlrd. dollarga yetdi. Belarusda 8 yillik davrda 27 foizga yaqin sanoat o'sishi kuzatilgan. Kichikroq iqtisodiyotlarga ega bo'lgan Armaniya va Qirg'iziston ham ijobiy dinamika namoyon etdi. Armaniyada sanoat ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 3,8 mlrd. dollardan 2024-yilda 7,6 mlrd. dollarga ko'tarilib, deyarli ikki baravarga oshgan. Xuddi shunday, Qirg'izistonda ham ushbu ko'rsatkich 3,4 mlrd. dollardan 6,7 mlrd. dollarga yetgan. Ushbu statistik ma'lumotlar YeOII doirasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarining real samaradorligini yaqqol ko'rsatadi. Sanoat ishlab chiqarishidagi o'sish nafaqat a'zo davlatlar iqtisodiyotining mustahkamlanishini, balki integratsiya orqali yaratilgan yagona iqtisodiy makonning ijobiy ta'sirini ham aks ettiradi. Bu esa ishlab chiqarish zanjirlarining uyg'unlashuvi, texnologik almashinuv va infratuzilmaviy integratsiyaning kuchayganini anglatadi.

Integratsiya jarayonida a'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlar uyg'unlashuvi, xavfsizlik va iqtisodiy o'sish uchun qulay muhit yaratadi. Koronavirus pandemiyasi(COVID-19) pandemiyasi davrida YeOIIda integratsion hamkorlik samarasi ko'zga tashlandi: a'zo mamlakatlar o'rtasida tibbiy yordam va iqtisodiy resurslar almashinuvi yo'lga qo'yildi, bu esa iqtisodiy inqiroz ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, YeOIIning iqtisodiy siyosatni uyg'unlashtirish mexanizmlari global bozor o'zgarishlariga qarshi kurashishda a'zo davlatlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. YeOII a'zo davlatlarning iqtisodiy siyosatlari, soliq tizimlari va makroiqtisodiy strategiyalaridagi farqlar integratsiyaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Rossiya va Qozog'iston iqtisodiy siyosatdagi ba'zi asosiy yo'nalishlarda farq qilishi integratsiya jarayonini sekinlashtiradi. Suverenitetni himoya qilish istagi esa ayrim davlatlarda iqtisodiy siyosatni birlashtirishga qarshilik tug'diradi. Shuningdek, YeOII global iqtisodiy o'zgarishlardan, jumladan proteksionizm siyosatlari va sanksiyalardan sezilarli ta'sirlanadi. Rossiyaga nisbatan joriy qilingan xalqaro sanksiyalar YeOIIdagi savdo va investitsiyalar oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat YeOII uchun jahon bozorlaridagi barqarorlik va ishonchlikning muhim tahdid ekanligini ko'rsatadi. YeOII integratsiya jarayonining samarali rivojlanishini cheklovchi omillardan biri byurokratiya va boshqaruv tizimidagi muammolardir. Institutlarning zaifligi, qarorlar qabul qilishdagi sekinlik va a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar integratsiyaning samaradorligini pasaytiradi.

YeOII ning iqtisodiy integratsiyadagi imkoniyatlari:

- Savdo hajmining oshishi va erkin savdo muhitining shakllanishi. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi a'zo davlatlar o'rtasida bojxona to'siqlarining sezilarli darajada kamayishi va yagona iqtisodiy makonni yaratish orqali erkin savdo sharoitini ta'minlaydi. Bu jarayon ichki bozorda raqobatni kuchaytirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. 2019-2023 yillar oralig'ida YeOII mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi yillik o'rtacha 5,2% ga o'sdi, bu integratsiyaning aniq iqtisodiy natijasi sifatida ko'riladi. Savdo hajmining o'sishi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarda, balki a'zo mamlakatlar iqtisodiy o'sishida ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, Rossiya va

Qozog'iston eksport hajmlari 2020-yildan so'ng sezilarli darajada o'sdi, chunki endi ular o'zaro bojxona tariflarisiz va soddalashtirilgan bojxona tartiblari asosida mahsulot almashinuvi amalga oshmoqda. Bundan tashqari, erkin savdo muhitining shakllanishi kichik va o'rta biznes subyektlarining eksportga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ularning mahsulotlari endi an'anaviy bojxona to'siqlari sababli yuzaga kelgan narx oshishlarisiz qo'shni davlatlarga chiqishi osonlashdi. Bu esa iqtisodiy xilma-xillik va innovatsiyalarni rag'batlantirishga yordam beradi.

- Investitsiyalar oqimining faollashuvi va iqtisodiy rivojlanishning jadallashuvi. YeOII doirasida sarmoya muhiti yaxshilanishi natijasida ichki va xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshmoqda. 2023-yilda YeOII ga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi \$ 12 milliard oshdi, bu 2019-yilga nisbatan 20% ga ko'pdir. Ushbu sarmoyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ishlatilmoqda. Investitsiya faolligining oshishi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, ish o'rinlarini ko'paytiradi va mintaqaviy raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Misol uchun, Qozog'istonda 2022-yilda amalga oshirilgan yirik neft va gaz loyihalariga chet el investitsiyalari sezilarli o'sish ko'rsatdi, bu esa mamlakatning umumiy yalpi ichki mahsulotiga ijobiy ta'sir qildi. Shu bilan birga, Rossiyada avtomobilsozlik va elektrotexnika sohalariga sarmoya jalb qilish o'sib bormoqda, bu esa ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi.

- Mehnat kuchining erkin harakati va mintaqaviy iqtisodiy tafovutlarning kamayishi. Mehnat migratsiyasining erkinlashuvi YeOII mamlakatlari o'rtasida ishchi kuchi resurslarini yanada samarali taqsimlash imkonini yaratadi. 2022-yilda mintaqaviy migratsiya oqimi taxminan 1,8 million kishini tashkil etdi, bu o'tgan besh yil ichida sezilarli o'sishdir. Mehnat kuchining erkin harakati iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlardan rivojlangan hududlarga ishchi kuchi oqimini oshirib, mintaqaviy farqlarni kamaytiradi va ishchi kuchi bozorida moslashuvchanlikni oshiradi. Bu jarayon ko'plab mamlakatlarda ish o'rinlarini to'ldirishga va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Misol uchun, Qirg'iziston va Armanistondan Rossiyaga bo'lgan ishchi migratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, chunki bu davlatlarda mehnat bozorining ba'zi segmentlari qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

- Iqtisodiy barqarorlik va siyosiy hamkorlikni mustahkamlash. YeOIIning iqtisodiy integratsiyasi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki siyosiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuvi a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy ishonchni oshiradi, bu esa investitsiya va savdo xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi. Iqtisodiy barqarorlik mintaqada uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Masalan, YeOII ning siyosiy integratsiya mexanizmlari Yevrosiyo mintaqasida turli iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni yumshatishga xizmat qilmoqda, bu esa tashqi tahdidlarga qarshi hamkorlikni kuchaytiradi. Natijada, mintaqada davlatlari o'zaro ishonchni mustahkamlab, umumiy tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirmoqda.

YeOIIning iqtisodiy integratsiyadagi tahdidlari:

1. Iqtisodiy siyosat uyg'unlashuvining murakkabligi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqidagi (YeOII) a'zo davlatlarning iqtisodiy siyosatlari har xil bo'lishi, shuningdek, har bir davlat o'z suverenitetini himoya qilish istagi integratsiya jarayonini murakkablashtiradi. Bu farqlar ko'pincha iqtisodiy siyosatdagi uyg'unlikning sekinlashishiga va natijada integratsiyaning samaradorligining pasayishiga olib keladi. Masalan, YeOII mamlakatlari o'rtasida fiskal va monetar siyosatning uyg'unlashtirilishidagi muammolar ittifoqning umumiy iqtisodiy maqsadlariga erishishda to'siq bo'lmoqda. Bu holat integratsiya jarayonining optimal darajada emas, balki qisman amalga oshirilishiga sabab bo'ladi.

2. Ichki raqobat va zaif tarmoqlarning zarar ko'rishi. Bozor iqtisodiyoti doirasida bojxona to'siqlari kamayishi natijasida ichki bozorlar ochiladi, ammo bu holat zaif sanoat tarmoqlari uchun jiddiy tahdid tug'diradi. Bozor raqobati kuchayganda, kam samarali ishlab chiqaruvchi korxonalar yopilishi mumkin va bu iqtisodiy notenglik va ijtimoiy muammolarning kuchayishiga olib keladi. Masalan,

3. Tashqi tahdidlar va global iqtisodiy sharoitlar. Global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, jumladan proteksionistik siyosatlar, iqtisodiy sanksiyalar va global savdo zanjirlaridagi buzilishlar YeOII mamlakatlarining eksport-import faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'ngi yillardagi global savdo zanjirlarida yuzaga kelgan muammolar mintaqaviy iqtisodiyotlarning o'sish sur'atlarini sekinlashtirdi va iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Bu holat YeOII iqtisodiy strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

4. Byurokratiya va boshqaruv muammolari. YeOII dagi integratsiya jarayonining samarali amalga oshirilishi uchun boshqaruv tizimining mustahkamligi muhim ahamiyatga ega. Ammo, ittifoqning ba'zi institutlari zaif boshqaruv va byurokratik to'siqlar sababli o'z funksiyalarini to'liq bajara olmayapti. Bu esa qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonlarini kechiktiradi hamda integratsiyaning samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqolada YeOII doirasidagi savdo hajmining o'sishi, sanoat ishlab chiqarishdagi barqarorlik, mehnat resurslarining erkin harakati va investitsiya faolligining ortishi asosiy ijobiy omillar sifatida ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosatdagi nomuvofiqlik, tashqi tahdidlar, ichki tarmoqlarning zaifligi va institutsional muammolar integratsion jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- **Iqtisodiy siyosatni uyg'unlashtirish:** YeOII doirasida fiskal, monetar va tarif siyosatining bosqichma-bosqich muvofiqlashtirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

- **Investitsion muhitni yaxshilash:** Tashqi va ichki sarmoya oqimlarini jalb etish uchun a'zo davlatlarda huquqiy kafolatlar, soddalashtirilgan ruxsatnomalar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilishi lozim.

- **Zaif iqtisodiy tarmoqlarni himoya qilish:** Bozor ochiqligi tufayli zaiflashayotgan sanoat yo'nalishlariga vaqtincha kompensatsiya mexanizmlari, subsidiyalar va texnologik modernizatsiya dasturlari orqali yordam ko'rsatish zarur.

- **Tashqi tahdidlarga qarshi barqaror strategiyalar ishlab chiqish:** Global iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar, sanksiyalar va proteksionistik siyosatlar sharoitida muqobil bozorlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish va eksport diversifikatsiyasini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

- **Raqamli integratsiyani kuchaytirish:** Yagona raqamli bozorni shakllantirish orqali YeOII ichida raqamli infratuzilma, texnologik uyg'unlik va innovatsion o'sishni ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, YeOII doirasidagi iqtisodiy integratsiya mintaqaviy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Unga nisbatan tizimli va muvozanatli siyosiy-iqtisodiy yondashuv zarur bo'lib, bu jarayonning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank Group (2025). *The EAEU 2025 Digital Agenda: Prospects and Recommendations*. Overview Report.

<https://documents1.worldbank.org/curated/en/850581522435806724/pdf/EAEU-Overview-Full-ENG-Final.pdf>

2. Avilova, V. V., Shaykhutdinova, F. N., & Kuramshina, K. S. (2019). Models of cluster and digital integration of high-tech industries of the Eurasian Economic Union countries. In *Proceedings of ISCDE 2019* (pp.905–911). <https://doi.org/10.2991/iscde-19.2019.46>

3. Meshcheryakov, K. Y., Burkov, V. G., Shamgunov, R. G., & Berdegulova, L. A. (2019). A historical analysis of the failure of the Eurasian economic integration. *Studia Politica: Romanian Political Science Review*, 19(2), 261–282.

4. Integration of Financial Markets under the Conditions of the Eurasian Economic Union: Challenges and Opportunities. *Journal of Advanced Research in Law and Economics*, 12(1), 102–115.

5. Yelisseyeu, A. (2019). *The Eurasian Economic Union: Expectations, challenges, and achievements* (Policy Paper No. 10). The German Marshall Fund of the United States.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

